



## ADABIY MATNDA ANTROPONIMLARNING FUNKSIONAL ANAMIYATI

*Tursunova Sabina*

*Sharof Rashidov nomidagi*

*Samarqand davlat universiteti*

*4-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan antroponimika, ya’ni inson nomlarini o‘rganish masalasi tahlil qilinadi. Antroponimlarning lingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari, ularning badiiy matndagi funksional imkoniyatlari keng yoritiladi. Xususan, antroponimlarning nominativ, identifikatsion, ekspressiv-emotsional, stilistik, madaniy-tarixiy hamda ijtimoiy funksiyalari misollar asosida izohlanadi.

**Kalit so‘zlar:** antroponimika, onomastika, antroponim, ism, laqab, taxallus, badiiy matn, lingvokulturologiya, nominativ funksiya, stilistik funksiya, ijtimoiy funksiya, identifikatsiya.

**Аннотация.** В данной статье анализируется одна из важных областей лингвистики - антропонимия, то есть изучение человеческих имен. Широко рассматриваются лингвистические и лингвокультурные характеристики антропонимов, их функциональные возможности в литературном тексте. В частности, на примерах объясняются именительная, идентификационная, экспрессивно-эмоциональная, стилистическая, культурно-историческая и социальная функции антропонимов.

**Ключевые слова:** антропонимия, ономастика, антропоним, имя, прозвище, псевдоним, литературный текст, лингвокультурология, именительная функция, стилистическая функция, социальная функция, идентификационная функция.



**Abstract.** This article analyzes one of the important areas of linguistics, anthroponymics, that is, the study of human names. The linguistic and linguocultural characteristics of anthroponyms, their functional capabilities in the literary text are widely covered. In particular, the nominative, identification, expressive-emotional, stylistic, cultural-historical and social functions of anthroponyms are explained on the basis of examples.

**Keywords:** anthroponymics, onomastics, anthroponym, name, nickname, pseudonym, literary text, linguoculturalology, nominative function, stylistic function, social function, identification.

### **Kirish**

Tilshunoslikda atoqli otlar tizimini o'rganadigan soha onomastika, uning tarkibiy qismi bo'lgan inson nomlarini o'rganuvchi yo'nalish esa antroponimika deb ataladi. Antroponimlar insonning ism-sharifi, taxallusi, laqabi va boshqa nomlash birliklarini qamrab oladi. Ular til tizimida nominativ birlik sifatida xizmat qilsa-da, badiiy matnda bundan ancha keng funksional yuklamaga ega bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida ham antroponimlar masalasi alohida o'rganilib, ularning lingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari keng tahlil qilingan. Jumladan, Sh.Rahmatullayev antroponimlarni milliy til boyligining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi va ularning xalq tafakkuri bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida o'zbek antroponimikasiga oid tadqiqotlar doirasi yana ham kengaydi. M.Tillayeva Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqini "Avesto" asari onomastikasi bilan qiyosiy yo'nalishda olib borib, yaxshi natijalarga erishdi. Olimaning xulosasiga ko'ra, "Avesto"da uchraydigan kishi nomlari nafaqat butun eroniy, balki Onomastik birliklar allyuziv nom sifatida qo'llanganida esa yozuvchining badiiy maqsadi birmuncha aniq ifodalanadi. "Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma'lum bo'lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg'un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish" usuliga allyuziya deyiladi.



Alluziv antroponim ramziy belgi bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, u o‘ziga xos belgi bo‘lib xizmat qiladi. Ta‘rif belgisi sifatida alluziv antroponim, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan birlashmalarni anglatadi va yangi birlashmalarni yaratadi.

Adabiy asarda har bir nom muallif tomonidan ongli ravishda tanlanadi. Antroponimlar matnda obrazni individuallashtirish, badiiy tasvirni aniqlashtirish, syujet rivojiga xizmat qilish, muallif g‘oyasini ochib berish kabi vazifalarni bajaradi. Badiiy matnda ism oddiy identifikatsiya vositasi emas, balki semantik yuklangan badiiy birlik hisoblanadi. Muallif qahramon nomi orqali o‘quvchiga dastlabki tasavvur beradi, ya‘ni ism obrazning “kaliti” vazifasini bajaradi. Masalan, o‘zbek adabiyotidagi ko‘plab asarlarda qahramon ismlari ularning xarakteri, taqdiri yoki ijtimoiy mavqeiga mos holda tanlangan. Bu esa antroponimlarning badiiy funksiyasini yanada kuchaytiradi. Antroponimlarning funksional xususiyatlari ko‘p qirrali bo‘lib, ular quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

1. Nominativ (atash) funksiya. Antroponimlarning eng asosiy vazifasi – shaxsni nomlash va boshqalardan ajratib ko‘rsatishdir. Bu funksiyada ism shunchaki identifikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Ma‘lumki, ismlar tarixda ko‘p asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga tarixiy-lisoniy boylik sifatida yetib kelgan ulkan madaniy va ma‘naviy qimmatga molik bo‘lgan lug‘aviy qatlam hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib antroponimlar kishi nomlari sifatida deyarli barcha hududlarda uchraydi. Ismlar – odamga yoshlik paytida beriluvchi atoqli ot .

Ism shaxslarni oila, avlod, mahalla, jamoa doirasida ajratishga imkon beradi. Masalan, Malika, Muhammad Yusuf, Muhammad Ali, Mirzo Ahmad, Abdulloh kabi ismlar. Laqablar o‘zbek antroponimiyasida hali yetarli darajada o‘rganilmagan birliklardan biridir. E.Begmatov “O‘zbek tili antroponimikasi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida laqabga shunday Ta‘rif beradi: “Laqab – shaxsning tashqi ko‘rinishi yoki xarakteridagi ma‘lum belgi yoki xususiyatga ko‘ra uning ijtimoiy ahvoli yoki nasl-nasabiga ko‘ra nomlanishidir. Laqablar ham atoqli otdir”. Laqab



o‘tmishda taxallus, familiya ma‘nosini ham anglatgan. Shu sababli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “Laqab (a) 1. Biror xususiyatiga ko‘ra kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo‘shincha nom.

2. eski. ayn. taxallus.

3. eski. ayn. familiya.

4. Hayvonlarga qo‘yilgan nom, – deb izohlangan. Bizning nazdimizda ham laqablar shaxsning bevosita ikkinchi nomidir. Jahon tilshunosligida ham laqablarga olimlar tomonidan turlicha ta‘riflar berilgan: “Laqab shaxs hayotining turli davrlarida unga odamlar tomonidan odamning turli xususiyati va sifatiga ishora qilib berilgan so‘zdir” M.N.Chobanov ism, familiya, ota ismini asosiy, laqab va taxallusni qo‘shimcha nomlar kategoriyasiga kiritadi.

2. Identifikatsion funktsiya. Antroponimlar shaxsni nafaqat nomlash, balki uning ijtimoiy, milliy, hududiy yoki oilaviy mansubligini aniqlashga yordam beradi. Hozirgi kunda taxallusning shoir va yozuvchi o‘z ismi va familiyasini qo‘shimchasiz qo‘llagan ko‘rinishi uchraydi: G‘afur G‘ulom, Izzat Sulton, Usmon Azim, Abdulla Qahhor kabi. Familiya o‘zbek antroponimiyasining onomastik birliklaridan birini tashkil etadi. Familiya rasmiy nom sifatida o‘zbek tilida rus tili ta‘sirida paydo bo‘lgan [3, 85]. Familiya ota yoki bobo ismidan yasilib, shaxs ismiga qo‘shib aytiladigan, nasldan naslga o‘tadigan oilaviy nom [5. 323- 324].

Bizningcha ham familiya avloddan avlodga o‘tadigan merosiy nom hisoblanadi. Otasining ismi (otchestva) ham antroponimiyaning leksik birliklari qatoriga kiradi. Ota-ism shaxsni otasi tomonidan nomlash usulidir. Ota-ism-shaxsning otasi yoki bobosi ismidan keyin o‘g‘li, qizi so‘zlarini keltirish yoki -ovich (-ovna), -yevich (-yevna) qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladigan atoqli ot. Masalan, Oybek o‘g‘li, Muqimovich, Yakubovich, Ahmadaliyevna kabi. O‘zbek nomshunosligi tarixida shaxsni ota tomondan nomlashga xizmat qiladigan ibn (arabcha), bin, binni (arabcha), binti-qiz (arabcha) so‘zlari ham qo‘llanilgan.



3. Ekspressiv-emotsional funksiya. Antroponimlar nutqda hissiy-ta'sirchanlikni kuchaytirish uchun ham qo'llanadi. Ayniqsa, badiiy matnlarda qahramonlarga berilgan ismlar ularning xarakteri yoki muallif munosabatini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, erkalash shakllari ("Dilnozacha", "Bekjon") iliqlik, yaqinlikni bildirsa, ba'zi ismlar kinoya yoki salbiy munosabatni ham ifodalashi mumkin.

4. Stilistik funksiya. Badiiy adabiyotda antroponimlar muhim stilistik vosita hisoblanadi. Muallif qahramon ismini tanlash orqali uning xarakterini, ijtimoiy mavqeini yoki davr ruhini ochib beradi. Masalan, tarixiy asarlarda qadimgi ismlarning qo'llanishi (Temur, Jaloliddin) asarning tarixiy koloritini kuchaytiradi.

5. Madaniy-tarixiy funksiya. Antroponimlar xalqning urf-odatlarini, diniy qarashlarini, tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Ismlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ularda jamiyatning madaniyatli va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo'ladi. Ismlar ma'lum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan o'rni haqida ham xabar beradi. Har bir ism ma'lum bir sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. U ommabop yoki kam qo'llanuvchi bo'lishi mumkin. Ular bir nom o'z tarixi, "biografiyasi" va "geografiyasi"ga ega. Ismlarning nostilistik jihatdan real yoki to'qima bo'lishi mumkin. Ismlar o'z obyektini haqida ma'lum bir axborot harn berishi mumkin.. Bu axborotlar 3 ko'rinishga ega:

- 1) lisoniy;
- 2) nutqiy;
- 3) qomusiy.

Til birligi (lisoniy) sifatida ular shaxslarni ataydi, individlarni bir-biridan ajratadi. Nutqiy informatsiyada esa so'zlovchining shu ismga munosabatini ifodalaydi. Masalan: "Gitler nomini eshitsam, jinim qo'zg'aydi". Bu gapda nomga nisbatan salbiy munosabat ifodalanmoqda. Qomusiy axborot esa antroponim asoslangan applyativ ma'noga yaqinlashadi: Gulnora, Gulandom, Gulruxsor ismlarida gulga xos bo'lgan noziklik, yoqimlilik semalariga asoslaniladi.



6. Ijtimoiy funksiya. Antroponimlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ham aks ettiradi. Ismlarda milliylik xususiyati aks etadi. Ismlar eskilik yoki yangilik bo'yog'iga ega bo'ladi. Applyativlardan ko'chgan ismlarda sinonimiya hodisasi mavjud (To'xtasin, Tursun) ammopolisemiya mavjud emas. Polisemiya hodisasi (A.V. Superanskaya) anchagina uchraydi. Masalan: Alpomish – Hakimbek; Ibn Sino – Avitsenna; Arestotel – Arastu kabi.

### **Xulosa**

Adabiy matnda antroponimlar ko'p funksiyali lingvistik birlik bo'lib, ular orqali obrazlar individuallashtiriladi, xarakter ochiladi, milliy va madaniy muhit yaratiladi, muallifning estetik va g'oyaviy qarashlari ifodalanadi. Shu bois antroponimlar badiiy matnning ajralmas qismi sifatida muhim ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Superanskaya A.V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. Moskva, 1973.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek onomastikasi. Toshkent, 2010.
3. Madvaliyev A. Onamastika. Toshkent: Sharq, 2018.
4. Karimov S. Badiiy matn lingvistikasi. Toshkent, 2015.
5. Begmatov A.E. O'zbek tili antroponomikasi. Toshkent: Fan, 2013.